ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

# ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/1 (156)
2026

ISSN 2181-1296

# ILMIY AXBOROTNOMA

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК** **SCIENTIFIC JOURNAL**

**2026-yil, 2-son (156/1) GUMANITAR FANLAR SERIYASI**

**Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

**BOSH MUHARRIR** **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:** **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

| | | | |
|---|---|---|---|
| M.Q.Muhiddinov | -f.f.d., professor (SamDU) | B.E.Ergashev | -t.f.d., professor (SamDU) |
| Stefano Benazzi | -Bolonya universiteti professori (Italiya) | S.A.Karimov | -f. f. d., professor (SamDU) |
| Simone Mantelini | -Bolonya universiteti professori (Italiya) | M.X.Lutfullayev | -p.f.d.. professor (SamDU) |
| Sh.Y.Ziyodov | -i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi) | A.R.Samadov | -fal. f.d., professor (SamDU) |
| N.U.Arabov | -i.f.d., professor (SamDU) | Sh.A.Hasanov | -f.f.d., professor (SamDU) |
| Hiroaki Huziie | -Osaka universiteti professori (Yaponiya) | B.S.G‘oyibov | -t.f.d., professor (SamDU) |
| B.O.To‘rayev | -fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy- | G.B.Normurodova | -t.f.d., professor (SamDU) |
| A.B.Pardayev | -f. f.d., professor (SamDU) | F.Sh.Rashidova | -t.f.f.d., dotsent (SamDU) |
| O.Yusupova | -f.f.n., dotsent (SamDU) | D.Q.Usmonova | -i.f.n., dotsent (SamDU) |
| O.Qodirov | -p.f.n., dotsent (SamDU) | N.A.Isakova | -f.f.n., dotsent (SamDU) |

**Obuna indeksi** – yakka tartibdagi obunachilar uchun - **5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

**M U N D A R I J A**
**C O N T E N T S**


| № | Maqola nomi | Article title | Bet/page |
|---|---|---|---|
| **1** | Bakalavriat ta'lim tizimida fizika fanidan mustaqil ta'limni raqamli simulyatsiyalar asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari<br>**Amonov B., Umrzoqov F.** | Scientific and methodical foundations of organizing independent learning in physics within the undergraduate education system based on digital simulations<br>**Amonov B., Umrzokov F.** | **5-11** |
| **2** | Роль притч и легенд в контексте художественного произведения. структурообразующаяя функция жанров устного народного творчества (на материале современной узбекской литературы)<br>**Ишниязова Ш.А.** | The role of parables and legends in the context of a literary work. the structure-forming function of genres of oral folk creativity (based on the material of modern Uzbek literature)<br>**Ishniyazova Sh.A.** | **12-17** |
| **3** | Axborotlashgan jamiyatda virtual madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar: axloqiy-falsafiy tahlil<br>**Xaydarov X.S.** | Virtual culture and social networks in the information society: an ethical and philosophical analysis<br>**Khaydarov X.S.** | **18-23** |
| **4** | Bilingvizmning kognitiv rivojlnishdagi o'rni va ahamiyati<br>**Xushmurodova Sh. Sh.** | The role and significance of bilingualism in cognitive development<br>**Khushmurodova Sh. Sh.** | **24-29** |
| **5** | Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы<br>**Исакова Д.Т., Аронбаев С.Д., Аронбаев Д.М.** | Integration of media education with a secondary school chemistry course<br>**Isakova D.T., Aronbaev S.D., Aronbaev D.M.** | **30-35** |
| **6** | Raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik: global tendensiyalar va O'zbekiston kontekstida nazariy tahlil<br>**Ahrorov S.** | Social media addiction amidst digital transformation: global trends and a theoretical analysis in the context of Uzbekistan<br>**Ahrorov S.** | **36-46** |
| **7** | Talabalar bilan "Galogenlar"mavzusini o'rganishda interfaol uslublardan foydalanish<br>**Aminov Z., Aripova M., Murodov X.** | Using interactive methods in teaching the topic "halogens" to students<br>**Aminov Z., Aripova M., Murodov X.** | **47-50** |
| **8** | Ардашир I и основание Сасанидской державы<br>**Зияев О.К.** | Ardashir I and the Foundation of the Sasanian Empire<br>**Ziyaev O.K.** | **51-55** |
| **9** | Geometriya fanini o'qitishda vizuallashtirishning pedagogik-psixologik asoslari va fazoviy tafakkurni rivojlantirish mexanizmlari (Akademik litsey kontekstida)<br>**Xoliqov L.** | Pedagogical and psychological foundations of visualization in teaching geometry and mechanisms for developing spatial thinking (In the context of academic lyceums)<br>**Kholikov L.** | **56-60** |
| **10** | Ingliz va o'zbek madaniyatlarida tabiatning lingvistik tasviri: metaforalar va madaniy qadriyatlar<br>**Shamsiddinova N.F., Ruziyeva S.A.** | Linguistic representation of nature in English and Uzbek cultures: Metaphors and cultural values<br>**Shamsiddinova N.F., Ruzieva S.A.** | **61-68** |
| **11** | O'quvchi yoshlarning istiqbol hayot rejalarini belgilashda ijtimoiy raqobatning o'rni<br>**Abduvaliyev F.** | The role of social competition in shaping the future life plans of students<br>**Abduvaliev F.** | **69-74** |

| № | Maqola nomi | Article title | Bet/page |
|---|---|---|---|
| **12** | Umumiy o‘rta ta’lim tizimida hr texnologiyalar va pedagoglarni boshqarishning singapur tajribasi<br>**Turikova L.M.** | HR technologies and singapore’s experience in managing educators within the general secondary education system<br>**Turikova L.M.** | **75-79** |
| **13** | Dafn marosimlarining an’anaviy va zamonaviy talqini<br>**Kamalova D.** | Traditional and modern interpretations of funeral rites<br>**Kamalova D.** | **80-84** |
| **14** | O‘zbek va ingliz tillarida predloglar va bog‘lovchilarning sintaktik vazifalarining qiyosiy tadqiqi<br>**Rasulova I.I.** | A comparative analysis of the syntactic functions of prepositions and conjunctions in uzbek and english languages<br>**Rasulova I.I.** | **85-89** |
| **15** | Mustamlaka davrda samarqand “Yangi shahar” qismining me’moriy qiyofasi<br>**Ergashev B.E., Davronova Z.P.** | Architectural appearance of the «new city» part of Samarkand in the colonial period<br>**Ergashev B.E., Davronova Z.P.** | **90-96** |
| **16** | Ingliz va o‘zbek paremiologik birliklarida “Bilim” tushunchasining amalga oshirilishi<br>**Rofeyeva Sh. D.** | The realization of the concept of "Knowledge" in english and uzbek paremiological units<br>**Rofeyeva Sh. D.** | **97-103** |
| **17** | Ingliz va o‘zbek maqollarida son kategoriyasi: ko‘chma, ijtimoiy va falsafiy ma’nolarning qiyosiy tahlili<br>**Usmanov S.B.** | The category of number in english and uzbek proverbs: a comparative examination of figurative, social, and philosophical meanings<br>**Usmanov S.B.** | **104-110** |
| **18** | So‘z tartibi va sintaktik bog‘lanishlarning qiyosiy modeli: svo va sov tizimi (Fransuz va O‘zbek tillari misolida)<br>**Eshmurodova Z.R.** | Comparative model of word order and syntactic connections: SVO And SOV system (on the example of the French and Uzbek languages)<br>**Eshmurodova Z.R.** | **111-115** |
| **19** | Samarqandning kulollik xumdonlarining texnologik va hududiy tahlili (XI–XIII asr boshlari)<br>**Nazarov A.A.** | Technological and spatial analysis of pottery kilns of Samarkand (11th – early 13th centuries)<br>**Nazarov A.A.** | **116-124** |
| **20** | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida moduyar arifmetika tushuchalarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni tadqiqot faoliyati usullarini shakllantirish<br>**Jurakulov M.S.** | Developing student research methods in teaching modular arithmetic concepts in school<br>**Jurakulov M.S.** | **125-132** |
| **21** | Raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish metodlari<br>va vositalari<br>**Aminov I.B., Abdusobirova M.** | Methods and tools for using digital educational platforms<br>**Aminov I.B., Abdusobirova M.** | **133-140** |
| **22** | Ingliz va o‘zbek tillaridagi biznes kommunikatsiya formulalarining lingvo madaniy tadqiqoti<br>**Xolboyeva F.A.** | Linguacultural study of business communication formulas within the context of the english and uzbek languages<br>**Kholboeva F.A.** | **141-147** |

**UDK: 44:494.3** https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3903

# SO‘Z TARTIBI VA SINTAKTIK BOG‘LANISHLARNING QIYOSIY MODELI: SVO VA SOV TIZIMI (FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

**Z.R.Eshmurodova**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

**Z.R.Eshmurodova**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 15.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 28.03.2026
Qabul qilindi: 15.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va fransuz tillari so‘z tartibi va sintaktik bog‘lanishlarining qiyosiy modeli tahlil qilinadi. O‘zbek tilining SOV va fransuz tilining SVO tizimi universal grammatika va kontrastiv lingvistika nazariyalari doirasida o‘rganildi. Tadqiqot so‘z tartibiga ta’sir etuvchi parametrlar – head-directionality, pro-drop, kelishik tizimi va determinatsiya – orqali chuqur o‘rganilishi borasida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** so‘z tartibi, SOV, SVO, sintaktik bog‘lanish, kontrastiv lingvistika, universal grammatika, parametrik tahlil, pro-drop, kelishik tizimi, determinatsiya, til tipologiyasi, tarjimashunoslik.

## Сравнительная модель порядка слов и синтаксических связей: системы SVO и SOV (на примере французского и узбекского языков)

**Аннотация.** В данной статье анализируется сравнительная модель порядка слов и синтаксических связей в узбекском и французском языках. Система SOV узбекского языка и система SVO французского языка изучаются в рамках теорий универсальной грамматики и контрастивной лингвистики. Исследование сосредоточено на углубленном изучении параметров, влияющих на порядок слов: направленность вершины, выпадение про-слога, система согласования и детерминация.

**Ключевые слова:** порядок слов, SOV, SVO, синтаксическая связь, контрастивная лингвистика, универсальная грамматика, параметрический анализ, выпадение про-слов, система спряжения, определение, типология языка, переводоведение.

## Comparative model of word order and syntactic connections: SVO And SOV system (on the example of the French and Uzbek languages)

**Abstact.** This article analyzes a comparative model of word order and syntactic connections in Uzbek and French. The SOV system of Uzbek and the SVO system of French are studied within the framework of the theories of universal grammar and contrastive linguistics. The research focuses on the in-depth study of the parameters affecting word order - head-directionality, pro-drop, agreement system and determination.

**Keywords:** word order, SOV, SVO, syntactic connection, contrastive linguistics, universal grammar, parametric analysis, pro-drop, conjugation system, determination, language typology, translation studies.

**Kirish.** Globallashuv jarayonida turli til tizimlarini qiyosiy o‘rganish, ularning struktur xususiyatlarini aniqlash va bu tizimlar o‘rtasidagi umumiylik hamda farqlarni ilmiy asosda yoritish masalasi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, o‘zbek va fransuz

tillari kabi turli tipologik guruhlarga mansub tillarning grammatik qurilishini kontrastiv lingvistika va universal grammatika nazariyasi asosida tahlil qilish nazariy va amaliy jihatdan katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tili agglutinativ tuzilishga ega bo‘lib, grammatik munosabatlarni asosan affikslar orqali ifodalasa [1], fransuz tili flektiv tuzilishning an’anaviy vakili sifatida grammatik ma’no va sintaktik munosabatlarni ko‘proq fleksiya, yordamchi fe’llar va funksional so‘zlar yordamida ifodalaydi. Ushbu ikki tilning morfologik-sintaktik tizimi orasidagi tub farqlar ularni kontrastiv yondashuv asosida chuqur ilmiy tadqiq qilishni talab qiladi [3].

Universal grammatika nazariyasiga ko‘ra, barcha tillar umumiy grammatik mexanizmlar va kategoriyalar majmuasiga ega bo‘lsa-da, ular parametrlashgan farqlar orqali bir-biridan ajralib turadi. O‘zbek va fransuz tillarining grammatik tizimidagi ushbu parametrik tafovutlar — so‘z tartibi, fe’l zamon-mayl kategoriyalari, kelishiklarning ifodalanish usuli, determinatsiya vositalari, shaxs-son kategoriyasi, artikl tizimi va boshqalar — umumiy nazariy konsepsiyalarni qayta ko‘rib chiqish, til universallarini amaliy tahlil orqali yoritish imkonini beradi [5].

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda fransuz tili o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar tomonidan keng o‘rganilayotgan xorijiy tillardan biri bo‘lib, kontrastiv lingvistika asosidagi chuqur grammatik tahlillar tarjimashunoslik, chet tilini o‘qitish metodikasi, o‘zaro interferensiya jarayonlarini oldindan bashorat qilish, til o‘rganishdagi qiyinchiliklarni minimallashtirish kabi amaliy jihatlar uchun muhimdir.

Shuningdek, o‘zbek va fransuz tillarini universal grammatika tamoyillari asosida sinchiklab tahlil qilish nafaqat til tipologiyasi uchun, balki turkiy va roman tillarining umumiy struktur xususiyatlarini aniqlash, ularning grammatik modellashuvi, sintaktik va morfologik universallarini aniqlash, parametrik farqlarni ilmiy asoslash va, pirovardida, zamonaviy umumiy tilshunoslik nazariyalarini boyitish uchun ham zarurdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi.** So‘z tartibi va sintaktik bog‘lanishlarning qiyosiy tahlili kontrastiv lingvistika va universal grammatika sohasida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kontrastiv lingvistika XIX–XX asrlar davomida, xususan, Lado (1957), Fisiak (1974), James (1980) kabi olimlar tomonidan rivojlangan. Ularning ishlari turli tillar juftliklarini, jumladan, o‘zbek va fransuz tillarini ham o‘rganishga asos yaratgan.

O‘zbek tilida so‘z tartibi SOV (subyekt–obyekt–fe’l) shaklida namoyon bo‘lib, fe’l gap oxirida joylashadi va kelishik tizimi orqali sintaktik bog‘lanishlarni belgilaydi. O‘zbek tilida pro-drop parametri mavjud bo‘lib, subyektni tushirish imkonini beradi, bu esa tilning morfologik va sintaktik erkinligini oshiradi (Sodiqova, 2021; Abdurahmonov, 2018). So‘z tartibining erkinligi va kelishik tizimi ko‘plab tadqiqotlarda morfologik va tipologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shu bilan birga, o‘zbek tilining SOV tizimi va fransuz tilining SVO tizimi o‘rtasidagi qiyosiy parametrik tahlil yetarlicha rivojlanmagan.

Fransuz tilida so‘z tartibi qat’iy SVO (subyekt–fe’l–obyekt) tizimida amalga oshadi. Fe’l subyekt va obyekt orasida joylashadi, artikllar va predloglar qat’iy sintaktik qoidalarni belgilaydi. Fransuz tilida pro-drop parametri mavjud emas, shuning uchun subyekt doimiy ravishda ishlatiladi [8]. Sintaktik bog‘lanishlar, masalan, moslashuv (agreement), boshqaruv (government), qo‘shilish (adjacency) qat’iy tartibga asoslangan. Shu sababli fransuz tilidagi SVO tizimi qat’iy tipologik struktura sifatida o‘rganilgan va turli tipologik va funksional jihatlar bo‘yicha tahlil qilingan.

Universal grammatika nazariyasi [9] so‘z tartibi parametrlarini (head-directionality, pro-drop, kelishik tizimi, determinatsiya) tadqiq qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tipologik va kontrastiv tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilining SOV tizimi va fransuz tilining SVO tizimi orasidagi farqlar nafaqat morfologik va sintaktik, balki funksional-semantik jihatdan ham sezilarli. Masalan, o‘zbek tilida tema–rema printsipi va urg‘u subyekt yoki obyektga qarab o‘zgaradi: *Kitobni*

*MEN o‘qidim*. Fransuz tilida esa urg‘u ko‘proq fonetik va prosodik vositalar bilan beriladi: *C’est moi qui ai lu le livre.*

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotning metodologiyasi kontrastiv lingvistika va universal grammatika tamoyillariga asoslangan bo‘lib, fransuz va o‘zbek tillari so‘z tartibi va sintaktik bog‘lanishlarini qiyosiy tahlil qilishni maqsad qiladi. **So‘z tartibi** – gapdagi so‘zlarning ma’no va grammatik jihatdan tartiblangan joylashuvi bo‘lib, tilning sintaktik tuzilishini belgilaydi. U gapning semantik izchilligi va sintaktik tushunarliligini ta’minlaydi. So‘z tartibi turli tillarda turlicha bo‘lib, u **tilning tipologik xususiyatlari**ga bog‘liq. Masalan:

- **Fransuz tili (SVO):** subyekt–fe’l–obyekt: *Je lis le livre.* Fe’l subyekt va obyekt orasida joylashadi. So‘z tartibi qat’iy va grammatik vositalar (artikl, predlog) bilan aniqlanadi.
- **O‘zbek tili (SOV):** sub’ekt–obyekt–fe’l: *Men kitobni o‘qidim.* Bu yerda fe’l gap oxirida keladi, obyekt kelishik bilan aniqlanadi. So‘z tartibi nisbatan erkin, lekin semantik urg‘u va kontekstga bog‘liq.

**Sintaktik bog‘lanish** esa gapdagi so‘zlar o‘rtasidagi grammatik aloqalarni ifodalaydi. U quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Moslashuv (agreement):** subyekt va fe’l, fe’l va obyekt o‘rtasidagi shaxs, son va jins bo‘yicha kelishuv.
   - O‘zbek tilida: *Kitoblar o‘qildi* (son mosligi).
   - Fransuz tilida: *Les livres sont lus* (son va jins mosligi).
2. **Boshqaruv (government):** fe’l yoki predlog so‘zga ta’sir qiladi, uning shaklini belgilaydi.
   - O‘zbek tilida: kelishik qo‘shimchalari orqali.
   - Fransuz tilida: predloglar va artikllar orqali.
3. **Qo‘shilish (adjacency/word combination):** so‘zlarning sintaktik kombinatsiyasi va gapdagi joylashuvi.

**Gapdagi so‘z tartibi va sintaktik bog‘lanish o‘zaro bog‘liq bo‘lib**, tilning semantik va grammatik tizimini tashkil qiladi. Masalan, o‘zbek tilida so‘z tartibi erkin bo‘lsa-da, sintaktik bog‘lanish kelishiklar va affikslarga bog‘liq, fransuz tilida esa qat’iy so‘z tartibi sintaktik bog‘lanishning asosiy vositasi hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlil obyekti sifatida tanlangan fransuz va o‘zbek tilining grammatik qurilishini quyidagicha tahlil qilishga harakat qildik:

**1. So‘z tartibi tahlili**

**O‘zbek tili (SOV)**

- Asosiy tuzilma: **subyekt–obyekt–fe’l**: Misol: *Men kitobni o‘qidim.*
- Obyekt kelishik bilan aniqlanadi, shuning uchun so‘z tartibi nisbatan erkin: *Kitobni men o‘qidim.*
- Fe’l gap oxirida keladi (head-final).
- **Pro-drop** parametri mavjud, ya’ni subyektni tushirish mumkin: *O‘qidim.*
- Tema–rema prinsipi so‘z tartibini semantik jihatdan shakllantiradi.

**Fransuz tili (SVO)**

- Asosiy tuzilma: **subyekt–fe’l–obyekt**. Misol: *Je lis le livre.*
- So‘z tartibi qat’iy, artikl va predloglar bilan aniqlanadi.
- Fe’l subyekt va obyekt orasida joylashadi (head-initial).
- **Pro-drop** mavjud emas: subyekt doimiy ishlatiladi.
- Urg‘u fonetik va prosodik vositalar orqali belgilanadi.

**Tahliliy xulosa:**

- O‘zbek tilida so‘z tartibi erkin, lekin kelishik va kontekstga bog‘liq.

- Fransuz tilida so‘z tartibi qat’iy va grammatik vositalar bilan mustahkamlangan.
- Head-directionality parametriga ko‘ra, o‘zbek – head-final, fransuz – head-initial.

**2. Sintaktik bog‘lanish tahlili**

| **Sintaktik parametr** | **Fransuz tili** | **O‘zbek tili** | **Izoh** |
|---|---|---|---|
| Moslashuv (agreement) | Son va jins mosligi bilan fe’l va artiklda | Son va shaxs affikslari | Grammatik bog‘lanishning turli ifodalari |
| Boshqaruv (government) | Predloglar va artikllar | Kelishik qo‘shimchalari | Obyekt va fe’l o‘rtasidagi bog‘lanish mexanizmi |
| Qo‘shilish (adjacency) | Qat’iy, so‘z tartibiga bog‘liq | Erkin, semantik urg‘uga bog‘liq | Gapdagi so‘zlarning kombinatsiyasi |
| Pro-drop | Yo‘q | Mavjud | Subyekt tushirilishi yoki qat’iyligi |

**Tahliliy xulosa:**

- O‘zbek tilida sintaktik bog‘lanish asosan morfologik vositalar orqali amalga oshadi.
- Fransuz tilida sintaktik bog‘lanish qat’iy so‘z tartibi va grammatik vositalar orqali mustahkamlanadi.
- So‘z tartibi va sintaktik bog‘lanish o‘zaro uzviy bog‘liq: o‘zbek tilida semantik erkinlik, fransuz tilida grammatik qat’iylik hukmron.

**Parametrik va funksional tahlil**

- **Head-directionality:** O‘zbek – oxir (head-final), Fransuz – bosh (head-initial).
- **Pro-drop:** O‘zbek – mavjud, Fransuz – mavjud emas.
- **Determinatsiya:** O‘zbek – artiklsiz, Fransuz – artikl orqali aniqlanadi.
- **Kelishik tizimi:** O‘zbek – affikslarga asoslangan, Fransuz – predlog va artikllarga asoslangan.

**Funksional-semantik farqlar:**

- O‘zbek tilida tema–rema prinsipi va urg‘u so‘z tartibiga bog‘liq.
- Fransuz tilida urg‘u prosodiya va fonetika orqali belgilanadi.

**Qiyosiy natijalar**

1. **Tipologik farqlar:**
   - O‘zbek tili SOV, head-final, agglutinativ, semantik erkinlikka ega.
   - Fransuz tili SVO, head-initial, flektiv, grammatik qat’iylik hukmron [13].

**Sintaktik bog‘lanish:**

- O‘zbek tilida morfologik affikslar va kelishiklar asosiy vosita.
- Fransuz tilida qat’iy so‘z tartibi va artikl/predloglar asosiy vosita.

**Parametrik tahlil:**

- Head-directionality, pro-drop, kelishik va determinatsiya parametrlarida tilga xos farqlar mavjud.
- Natijalar universal grammatika nazariyasi doirasida tushuntiriladi.

**Amaliy ahamiyat:**

- Natijalar tarjimashunoslik, til o‘qitish metodikasi va tipologik tadqiqotlar uchun muhim.
- Ikki til o‘rtasidagi qiyosiy model tarjima va kontrastiv til o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Fransuz va o‘zbek tillarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning sintaktik tizimi, ayniqsa, gapning asosiy komponentlarining joylashuvi jihatidan sezilarli farqlarga ega. Fransuz tili uchun xos bo‘lgan SVO (subyekt–fe’l–obyekt) modeli gapning qat’iy so‘z tartibiga tayanadi; u mazmunning tushunarliligi va grammatik aniqligini aynan tartib orqali ta’minlaydi. O‘zbek tilining SOV (subyekt–obyekt–fe’l) modeli esa erkinroq so‘z tartibiga ega bo‘lib, sintaktik munosabatlar asosan kelishik qo‘shimchalari va fe’lning morfologik shakllari orqali belgilab beriladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, fransuz tilida so‘z tartibi kommunikativ vazifani belgilovchi asosiy vosita bo‘lsa, o‘zbek tilida sintaktik bog‘lanishlar morfologik vositalar yordamida shakllanadi. Shuning uchun ham SVO va SOV tizimlari bir xil kommunikativ mazmunni yetkazsa-da, ularning struktural qurilishi va sintaktik mexanizmlari tubdan farq qiladi. Bu farqlar tarjima jarayonida, tilni o‘qitishda, avtomatik matn tahlili va lingvistik modellarda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ikki tilning qiyosiy modeli nafaqat ularning grammatik tizimi haqida keng tasavvur beradi, balki SVO va SOV strukturalarining universal va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash orqali umumiy tilshunoslik nazariyasining rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi.

## Adabiyotlar


1. Abdullayev A. O‘zbek tili sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Abduvaliyev O. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Sintaksis. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
3. Bally Ch. Linguistique générale et linguistique française. – Paris: A. Francke, 2004.
4. Bonnot J.-F. La syntaxe du français contemporain. – Paris: Armand Colin, 2012.
5. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology. – Chicago: University of Chicago Press, 1981.
6. Foley W., Van Valin, R. Functional Syntax and Universal Grammar. – Cambridge: CUP, 1984.
7. G‘ulomov A., Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1978.
8. Haspelmath M. Understanding Morphology. – Oxford: Blackwell, 2002.
9. König E. Typology of Languages: Word Order. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2005.
10. Larson R. Syntax: Structure, Meaning, and Function. – Oxford: Blackwell, 2010.
11. Mahmudov N. Hozirgi o‘zbek tili: Nazariy sintaksis. – Toshkent: O‘zMU, 2015.
12. Perlmutter D. Studies in Relational Grammar. – Chicago: University of Chicago Press, 1983.
13. Tesnière L. Éléments de syntaxe structurale. – Paris: Klincksieck, 1993.
14. Uzokov E. O‘zbek tilida so‘z tartibi va uning kommunikativ xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2009.
15. Valin R. van. An Introduction to Syntax. – Cambridge: CUP, 2001.

# SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

**Muharrirlar:**

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

**Mas'ul muharrir:**

**A. Sh. Yarmuxamedov** - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296